



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA XALQARO TASHKIOTLARNING O'RNI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Raxmatulla Nurimbetov

Mustaqil tadqiqotchi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: xalqaro tashkilotlar, xalqaro munosabatlar, liberal dunyo tartiboti, mintaqaviylik nazariyaları, yangi mintaqaviylik, ko'ptomonlama institutlar.

Annotatsiya: Maqolada xalqaro tashkilotlar shakllanishining asosiy boschiqlari, dastlab, ular G'arbiy Yevropada shakllanganligi va asosan liberal dunyo tartibotining mahsuli ekanligi va shu sabab Ikkinchiji jahor urushidan keyin yaratilgan xalqaro tashkilotlar, asosan, AQSH manfaatlari uchun xizmat qilganligi yoritiladi. Shu bilan birga, XX asr boshlaridan buyon kuzatilayotgan liberal tartibotning inqirozi ta'sirida universal xalqaro tashkilotlar ham murakkab ahvolga tushib qolgani, ularning global boshqaruvga ta'siri kamayganligi va natijada ko'ptomonlama hamkorlikning mintaqaviy institutlari va mexanizmlarining kuchayish tendensiysi yetakchi ilmiy nazariyalar yordamida tahlil qilingan.

THE ROLE OF INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL RELATIONS: MODERN TRENDS

Rakhmatulla Nurimbetov

Independent researcher,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: international organizations, international relations, liberal world order, theories of regionalism, new regionalism, multilateral institutions.

Abstract: The article explores main stages of the formation of international organizations as a product of the evolution of interstate cooperation in Western Europe in the 19th-20th centuries and the liberal world order, their activities as a conductor of US interests after World War II. It also reveals the preconditions of weakening of trust in traditional international organizations and the strengthening of the role of regional institutions of multilateral cooperation

in the light of the formation of a new world order.

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

Рахматулла Нуримбетов

Независимый исследователь,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

международные организации, международные отношения, либеральный миропорядок, теории регионализма, новый регионализм, многосторонние институты.

Аннотация: В статье исследуются основные этапы формирования международных организаций как продукт эволюции межгосударственного сотрудничества на Западной Европе в XIX-XX веках и либерального миропорядка, их деятельность в качестве проводника интересов США после Второй мировой войны. В материале раскрываются причины и факторы, способствующие ослаблению доверия к традиционным международным организациям и усиления роли региональных институтов многостороннего сотрудничества в условиях формирования нового миропорядка.

KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlarni xalqaro tashkilotlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu ayniqsa hukumatlararo, ya’ni davlatlar o’rtasila tuzilgan xalqaro tashkilotlarga taalluqli. Xalqaro huquq fanida ular, xalqaro huquqning *ikkilamchi*, ya’ni davlatlar tomonidan yaratilgan subyekti deb ta’riflanadi¹.

Xalqaro tashkilotlarni tadqiq qilgan g‘arblik olimlar xalqaro tashkilotlarning shakllanish jarayonini uchta bosqichga ajratishadi. *Birinchi bosqich* XIX asr boshida Napoleon urushlaridan keyin Yevropaning yetakchi davlatlari tomonidan yangi tartibot qoidalarini belgilab olish uchun chaqirilgan Vena kongressiga (1814–1815-yillar) borib taqaladi. Aynan mana shu yirik diplomatik anjuman doirasida keyinchalik xalqaro tashkilotlar faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qilgan qoidalar majmuasi shakllangan. *Ikkinchi bosqich* XIX asr davomida va XX asr boshlarigacha davom etib, bu davrda xalqaro tashkilotlarning doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi institutlar sifatida shakllanishini ko‘rish mumkin. Aynan mana shu bosqichda Yevropada, avvalo, iqtisodiy-xo‘jalik sohalarda davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan ko‘ptomonlama institutlar paydo bo‘lgan. Ular jumlasiga Reyn daryosi bo‘yicha Markaziy Komissiya (1815-y.), Butunjahon telegraf ittifoqi (1865-y.), Butunjahon pochta ittifoqi (1874-y.)

¹ A.Saidov. Xalqaro xuquq: Darslik.- Toshkent: Adolat, 2001 BBK 67.412 ya 73. 61-b.

kabi tashkilotlarni kiritish mumkin. Keyinchalik “hukumatlararo xalqaro tashkilotlar”ga aylangan mazkur institutlar Ikkinchi Jahon Urushidan keyin BMTning ixtisoslashgan muassasalariga asos bo‘lib xizmat qilgan. *Uchinchi bosqich* XX asrning birinchi yarmini o‘z ichiga oladi². Bu bosqich “jahon hukumati”ni tuzish to‘g‘risidagi liberal qarashlarni hayotga tatbiq etishga bo‘lgan intilishlar bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Xususan, AQSH prezidenti V.Vilsonning 1918-yil 8-yanvarda Birinchi jahon urushini yakunlash va tinchlik o‘rnatish shartlariga bag‘ishlangan Kongressga yo‘llagan mashhur 14 banddan iborat murojaatida tartib raqami bo‘yicha 14-bo‘lgan taklifida “Millatlar Ligasi”ni tuzish g‘oyasini ilgari surgan edi. “Jahon hukumati” konsepsiysi asosida yuzaga kelgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1945-yilda tashkil etilishi bilan hukumatlararo xalqaro tashkilotlar xalqaro munosabatlar tizimidan muqim joy oldi, deyish mumkin³. Shu paytdan e’tiboran, ular xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyekti sifatida jahon siyosati va iqtisodiyotida muhim rol o‘ynab kelishmoqda.

Xalqaro tashkilotlar, ularning evolutsiyasi, turlari va xalqaro munosabatlar tizimida tutgan o‘rnii va roli xususida juda ko‘plab ilmiy adabiyotlar, yondashuvlar va nazariyalar mavjud. Ularni tadqiq qilgan ilmiy maktablarning aksariyati xalqaro tashkilotlar AQSH rahnamoligida G‘arb tomonidan XX asrning ikkinchi yarmidan izchil yoyib borilgan liberal tartibotning bevosita mahsuli ekanligini ta’kidlashadi⁴.

XX asr boshiga kelib, dunyo tartiboti, to‘g‘rirog‘i liberal tartibot tanazzuli atrofidagi munozara va bahslarda xalqaro tashkilotlarning, eng avvalo, universal tuzilmalarning (BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari) ham ahamiyati tushib ketayotganligiga oid fikr-mulohazalar yetakchi ilmiy doiralarda ham tobora kuchaymoqda. Xususan, “hujumkor realizm” nazariyasining asoschisi, taniqli amerikalik siyosatshunos J.Mirshaymer xalqaro tashkilotlarning tanazzulga uchrashi muqarrarligini ta’kidlasa⁵, bu sohada oxirgi yillarda chuqr tadqiqot olib borayotgan britaniyalik olma M.Eylstrap-Sangiovanni xalqaro tashkilotlar orasida “o‘lish” tendensiyasi avj olganinini ko‘rsatadi⁶. Pensilvaniya universiteti (AQSH) professori Yu.Grey esa ayni paytda o‘z maqsad va vazifalarini aniq tasavvur qilishga qodir bo‘lmagan “zombi” xalqaro tashkilotlarning ko‘payib borayotganligiga ishora qiladi⁷.

²Bob Reinalda. The Evolution of International Organization as Institutional Forms and Historical Processes to 1945. <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190846626.013.328>

³ Lloyd E. Ambrosius. Woodrow Wilson, Alliances, and the League of Nations. Published online by Cambridge University Press: 05 July 2017 // <https://doi.org/10.1017/9781316678602>

⁴ G. John Ikenberry. International Relations of the Asia-Pacific. Vol. 5, No. 2 (2005), pp. 133-152

⁵ (John J. Mearsheimer. Bound to Fail: The Rise and Fall of the Liberal International Order. International Security (2019) 43 (4): 7–50.)

⁶ Mette Eilstrup-Sangiovanni. What kills international organisations? When and why international organisations terminate. European Journal of International Relations Volume 27 Issue 1, March 2021. pp. 281–310.

⁷ Julia Grayyu Life, Death, or Zombie? The Vitality of International Organizations. International Studies Quarterly March 2018, 62(1): p.p.1-13.

Xalqaro tashkilotlar tanazzuli va ularning “ahamiyatsizligi” haqidagi ilmiy va siyosiy munozaralar COVID-19 pandemiyasi (2019–2022-yillar), Ukraina (2022-yil fevralidan e’tiboran), G‘azodagi (2023-yil oktabridan) inqirozlar sabab yangi bosqichga ko‘tarildi. Xalqaro tashkilotlar, birinchi navbatda, BMT va uning Xavfsizlik Kengashi xalqaro va mintaqaviy inqirozlar oldida tobora kuchsiz bo‘lib borayotganligi haqidagi fikrlar ko‘payishda davom etmoqda.

BMT va uning Xavfsizlik Kengashi, Bretton-Vuds institutlari (Jahon banki, Xalqaro Valuta Fondi), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEHHT), Xalqaro sog‘liqni saqlash tashkiloti (XSST), Jahon savdo tashkiloti (JST) va Ikkinchı jahon urushidan keyin tuzilgan boshqa ko‘p tomonlama institutlarni isloh qilish atrofidagi bahslar, ular legitimligining ayrim mamlakatlar tomonidan tan olinmasligi go‘yoki yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi⁸.

Ushbu va boshqa ko‘plab xalqaro tashkilotlarga ishonchsizlikning ortib borishi va umuman, ular faoliyatidagi muammolarni, eng avvalo, oxirgi paytda global boshqaruv tizimida ko‘ptomonlama (multilateralizm) hamkorlik modelining tanazzuli bilan izohlash mumkin. Ko‘ptomonlamalikning inqirozi esa, o‘z navbatida, uni yuzaga keltirgan liberal dunyo tartibotining yemirilishi bilan bog‘liq ekanligi xususida xalqaro ilmiy doiralar va yetakchi siyosatshunoslardan doirasida yakdillik mavjud⁹.

Ularga qisman qo‘shilgan holda, xalqaro tashkilotlar va ko‘p tomonlama institutlar butunlay boshi berk ko‘chaga kirib qolgan, degan firkdan yiroqmiz. Ilmiy adabiyotlar va tahliliy tadqiqotlarda universal xalqaro tashkilotlar inqirozga yuz tutayotganligi – bu eski dunyo tartiboti yemirilishining namoyoni, mintaqaviy tashkilotlar va mintaqaviy hamkorlik boshqa formatlarining yangi global boshqaruv tizimini shakllantirishdagi ahamiyati ortayotganligi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar ko‘paymoqda¹⁰. Buni xalqaro munosabatlarning mintaqalashuv tendensiyalari yoxud fragmentatsiyaga uchrayotganligi bilan bog‘lashadi.

Qisqacha qilib aytganda, Ikkinchı jahon urushidan keyin tuzilgan universal xalqaro tashkilotlar “eski” dunyo tartibot tamoyillari va qoidalarini shakllantirishda va hayotga tadbiq etishda asosiy mexanizmlar bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, bugun ular yaratgan “o‘yin qoidalari”, shu jumladan xalqaro huquq normalari buzilmoqda (ayniqsa AQSH, qisman Rossiya, Xitoy va boshqa qudratli davlatlar tomonidan) yoxud shubha ostiga olinmoqda (“revizionist” mamlakatlar

⁸ T.Bordachyov. Kones mejduna rodnykh institutov. 22.10.2020. <https://globalaffairs.ru/articles/konecz-institutov/>

⁹ Jean-Jacques Hallaert. The Tragedy of International Organizations in a World Order in Turmoil // European Centre for International Political Economy (ECIPE), July 2020 / URL: <https://ecipe.org/publications/tragedy-of-international-organizations/>.

¹⁰ Timo BEHR and Juha JOKELA. Regionalism & Global Governance: The Emerging Agenda // https://institutdelors.eu/wp-content/uploads/2018/01/regionalism_globalgovernance_t.behr-j.jokela_ne_july2011_01.pdf

tomonidan). Bunday fragmentatsiya jarayonlari, ya’ni yangi global boshqaruv tizimini shakllantirishga mintaqaviy institutlar ko‘proq ta’sir o‘tkazayotganligini namoyon qilmoqda¹¹.

Ushbu tendensiyalarni, ya’ni xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning hozirgi zamon xalqaro munosabatlar transformatsiyasi hamda yangi dunyo tartibotini shakllantirishdagi ahamiyatini “ko‘ptomonlamalik” va “mintaqaviylik” nazariyalari yordamida qiyosiy o‘rganish mumkin. *Ko‘ptomonlilik (multilateralism) konsepsiyalari* ayniqsa G‘arb nazariya maktablari orasida keng tarqalgan. Uning konceptual asoslari funksionalizm (Dj.Kaporazo), neofuknsionalizm (R.Koxen, Dj.Nay) va konstruktivizm (Dj.Raggi) vakillari tomonidan ishlab chiqilgan¹². Ushbu konsepsiya Dj.Raggining “Multilateralism: the Anatomy of an Institution” deb nomlangan maqolasida ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan. U ko‘ptomonlamalikni “davlatlarni umumiy normalarga bog‘lash uchun majburlovchi tamoyillar yig‘indisi” deb ta’riflaydi¹³. Germaniyaning “Fan va siyosat” aql markazi eksperti X.Maul fikricha, ko‘ptomonlamalik – bu “davlatlarning o‘zлari a’zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlarning tamoyillari, me’yorlari, qoidalari va protseduralariga asoslangan hamkorligidir”. Nemis olimi aynan xalqaro/mintaqaviy tashkilotlarni ko‘ptomonlama diplomatiyaning eng muhim instituti sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuv “tamoyillarga asoslangan ko‘ptomonlamalik” deb ham ta’riflanadi¹⁴.

Shu bilan birga, keyingi paytda boshqa bir guruh g‘arblik olimlar “tamoyillarga asoslangan ko‘p tomomlamalik” konsepsiysi yirik davlatlarning, xususan, AQSHning ko‘ptomonlama institutlarga, birinchi navbatda, BMTga bepisand munosabati tufayli o‘z ahamiyatini yo‘qotib borayotganligini ko‘rsatishadi. Xususan, germaniyalik professor Yu.Ryuland fikricha, bu–jahon siyosatida yuz bergen quyidagi tendensiyalar bilan bog‘liq. *Birinchidan*, AQSHning sobiq prezidenti kichik Dj.Bush administratsiyasining xalqaro huquqqa zid holda BMTning ruxsatisiz xalqaro harbiy operatsiyalarni uyuşhtirishi, Xalqaro jinoyat sudi Nizomini imzolashdan bosh tortishi, global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni tartibga soluvchi Kioto protokolidan, Ballistik raketalarga qarshi Shartnomadan chiqishi, keyinchalik bu siyosatning president D.Tramp davrida yanada avj olishi. *Ikkinchidan*, liberal-kosmosiyosiy me’yorlarga tayanuvchi dunyo tartibidan norozi bo‘lgan “revizionist” mamlakatlar – BRIKS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika Respublikasi) a’zolarining kuchayishi. Ular G‘arbning liberal tartibotini, BMT va

¹¹Mario Telò, 2020. "Regionalism and Global Governance: The Alternative between Power Politics and New Multilateralism," Annals of the Fondazione Luigi Einaudi. // An Interdisciplinary Journal of Economics, History and Political Science, Fondazione Luigi Einaudi, Torino (Italy), vol. 54(2) December 2020, p. 5-34.

¹²Ye.A.Dostanko. Vliyaniye multilateralizma na deyatelnost mejdunarodnyx organizatsiy: teoreticheskiye osnovaniya i prakticheskoye izmereniye // Nauchnye trudy Ryespublikanskogo Instituta Vysisshey shkolы. №16, 2017. S.54-60.

¹³John Gerard Ruggie. Multilateralism: the Anatomy of an Institution. // International Organization, Vol. 46, No. 3 (Summer, 1992), pp. 561-598.

¹⁴Hanns W. Maull (Hg.) Auflösung oder Ablösung? Die internationale Ordnung im Umbruch. SWP-Studie. S 21 Dezember 2017 Berlin. https://www.swp-berlin.org/fileadmin/contents/products/studien/2017S21_mul_hg.pdf

Bretton-Wuds institutlarini AQSH hukmronligidagi yakka qutbli tartibot uchun xizmat qilishini ro‘kach qilib, tartibotni muqobil me’yorlar va “o‘yin qoidalari” bilan o‘zgartirishga harakat qilishmoqda. BMT Xavfsizlik Kengashini, JSTni isloh qilish atrofidagi bahslar, 2008-yilda “G-20” formatining tuzilishi ham shular jumlasidan. Bular o‘z-o‘zidan “tamoyillarga asoslangan ko‘ptomonlamalik” tanazzulini anglatadi va uning o‘rnini “susaytirilgan ko‘ptomonlamalik” konsepsiysi egallamoqda. BMT Xavfsizlik Kengashi rolining keskin pasayishi, hamfikr davlatlar o‘rtasida “strategik sheriklik”larning kuchayishi, savdo paktlari, xalqaro tashkilotlar va ko‘ptomonlama forumlarning asosan “fikr almashish” maydonchasiga aylanishi – ushbu konsepsiyaning amalda namoyon bo‘lish shakllaridir¹⁵.

Ilmiy adabiyotlarda bu konsepsiya mohiyatiga yaqin bo‘lgan “yumshoq muvozanatlashtirish” (soft balancing), “cheplash” (hedging), “institutsionalistik realizm” (institutionalist realism) , “hamkorlikka moyil gegemonizm” (cooperative hegemony) kabi nazariyalar ham uchraydi. Umuman olganda, multilateralizm konsepsiysi universal xalqaro tashkilotlar ahamiyatining susayib borayotganligini tan oladi.¹⁶

Buning aksi o‘laroq, *mintaqaviylik* (*regionalism*) konsepsiyalari doirasidagi tadqiqotlarda mintaqaviy tashkilotlar va mintaqaviy (mintaqalararo) hamkorlikning boshqa institutsional shakllari ahamiyatining tobora ortib borayotganligi qayd etiladi. Bu boradagi asosiy nazariyalarni ko‘rib chiqishdan oldin va “chalkashliklar”ning olidini olish maqsadida “mintaqaviylik”, “mintaqaviy integratsiya” “mintaqaviy tashkilot”, “mintaqaviy hamkorlik institutlari” kabi tushunchalarga¹⁷ qisqacha ta’rif berib o‘tish lozim. Zero, mavzuga doir adabiyotlarda ushbu tushunchalar umumiyligi yoki o‘xshash atamalar sifatida ko‘p qo‘llaniladi. Oxirgi paytda xorijlik tadqiqotchilar ularga qisqacha quyidagicha ta’riflarni berishadi: “mintaqaviylik” – bu muayyan mintaqadagi mamlakatlar o‘rtasidagi umumiylikning mavjudligi va uni kuchaytirishga bo‘lgan ishonch¹⁸ yoxud hamkorlik yo‘lidagi siyosiy xatti-harakatlar¹⁹; “mintaqaviy integratsiya” – qo‘shni mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish konsepsiysi”; “mintaqaviy tashkilotlar” va “mintaqaviy hamkorlik to‘g‘risidagi tegishli

¹⁵Juergen Rueland. “Principled Multilateralism” versus “Diminished Multilateralism:” Some General Reflections. Multilateralism in a Changing World Order. p. 1-12. Editors: Christian Echle, Patrick Rueppel, Megha Sarmah, Yeo Lay Hwee. Konrad-Adenauer-Stiftung 2018.

¹⁶Juergen Rueland, O’sha joyda.

¹⁷Bu tushunchalarga ilmiy adabiyotlarda, har bir nazariy mifik yondashuviga uslubidan kelib chiqib juda ko‘plab, hatto munozarali, ta’riflar beriladi.

¹⁸Michael Wesley. Mediating the global order: the past and future of Asia Pacific regional organizations. // Asia-Pacific Security: Policy Challenges. Edited by: David W. Lovell . Published by ISEAS Publishing 2003https://doi.org/10.1355/9789812307088

¹⁹Louise Fawcett. Exploring Regional Domains: // A Comparative History of Regionalism. June 2004. International Affairs 80(3):p.433.

kelishuvlar” – integratsiyalashuvning mahsuli²⁰: “mintaqaviy hamkorlik institutlari”–mintaqa darajasidagi hamkorlikni o‘rnatish va kuchaytirishni maqsad qilgan rasmiy (xalqaro shartnomalar orqali tuzilgan va ishchi organlariga ega) va norasmiy (forum, konferensiya, tashabbus va platformalar) tuzilmalar, deyish mumkin. Bizningcha, “mintaqaviylik”–bu g‘oyaviy asos bo‘lsa, mintaqaviy tashkilotlar va institutlar – uni hayotga tatbiq etish mexanizmlari. Shu asosda mintaqaviy tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasi tizimidagi o‘rnini ko‘proq *mintaqaviylik* nazariyasi yordamida o‘rganish maqsadga muvofiq, deb bilamiz²¹.

Aslida mintaqaviy tashkilotlar Ikkinci jahon urushidan keyin xalqaro munosabatlarning rivojlanishi ta’sirida, dastlab, G‘arbiy Yevropada yuzaga kelgan fenomen. O‘tgan asrning o‘rtalarida ushbu qit’a mamlakatlari siyosiy-harbiy bloklarga asoslanmagan mintaqaviy birlashma tuzishga urinishib, bundan asosiy maqsad, eng avvalo, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, eskidan meros bo‘lib o‘tgan o‘zaro qo‘rquv va ziddiyatlarni bataraf qilish bo‘lgan²². Shu davrda ommaviy bo‘lgan mintaqaviylikning federalizm (A.Spinelli), funksionalizm (D.Mittrani), neofuknsionalizm (E.Xaas, F.Shmitter, A.Etsioni), transaksionalizm (K.Doychning “xavfsizlik hamjamiyati”) kabi nazariyalar ishlab chiqilib, ular asosan yevropatsentristik mohiyat kasb etgan. Hozirgi paytda “eski mintaqaviylik” deb ataluvchi ushbu nazariyalar mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonlarini, eng avvalo, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati misolida o‘rganishgan, boshqa mintaqalarga nisbatan qo‘llanilmagan²³.

Xalqaro tashkilotlar bo‘yicha yetuk mutaxassislardan biri italiyalik olim M.Teloning bu boradagi fikricha, Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda mintaqaviylik AQSH gegemonligi ostida shakllangan va uning siyosiy (sobiq SSSRni ushlab turish) va iqtisodiy (transatlantik xo‘jalik aloqalari kompleksini shakllashtirish, bozor iqtisodiyoti va erkin savdoni yoyish) manfaatlariga xizmat qilgan. Yevropadagi iqtisodiy ittifoqning muvaffaqiyati shundaki, u AQSH “g‘amxo‘rligida” va uning qadriyatlarini targ‘ib qilish va barqaror valuta tizimi sharoitida yuz berdi. Yevropadan tashqari mintaqalarda bunday muvaffaqiyatning takrorlanmasligi sababi esa – bu davrda mintaqaviy tashkilotlar mustaqil subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatolmagan, chunki ular AQSH yoxud SSSR ta’siri doirasiga tushib qolaverган²⁴. Demak, globalizatsiya jarayonlariga qaramasdan, ikki qutbli xalqaro munosabatlar sharoitida mintaqaviy tashkilotlar, AQSH va SSSRning raqobati tufayli mos ravishda rivojiana olishmagan. Bu fikrni regionalizm

²⁰ Hosli, M. O., & Selleslags, J. (Eds.). (2020). The Changing Global Order. // United Nations University Series on Regionalism. 2020. p.147

²¹Mintaqaviylik nazariya sida mintaqaviy hamkorlikning barcha turlari, shu jumladan, mintaqaviy tashkilotlari ham jarayon, fenomen sifatida o‘rganiladi.

²² K.A.Yefremova. Ot regionalizma k transregionalizmu: teoreticheskoye osmysleniye novoy realnosti. // Sravnitel'naya politika i geopolitika. 2017, T.8, №2, ss.58–70

²³ Yu.A.Nikitina. Ot integratsii k regionalizmu: evolyutsiya teoriy regionalnogo mejgosudarstvennogo sotrudnichestva // Vestnik MGIMO-Universiteta. 2010; (6(15)):134–140.

²⁴ M.Telo. Regionalizm i budućee globalnogo upravljeniya.//Mejdunarodnye protsessy. Tom 15, №3, ss.113–119.

mumammolari bo'yicha taniqli hindistonlik ekspert K.Gupta ham tasdiqlab, "eski mintaqaviylik"ni qudratli davlatlarning ta'siri tufayli asosan hukumatlar tomonidan, ko'proq mintaqa ichidagi jarayonlarga, xavfsizlik yoki iqtisodiy hamkorlik sohasidagi cheklangan masalalarga qaratilganligini va proteksionistik mohiyatidagi jarayon bo'lganligini ko'rsatadi. Regionalizm bu davrda serqirrali bo'lmasagan²⁵.

"Sovuq urush"ning tugashi mintaqalar darajasidagi hamkorlikka bo'lgan intilishni va mintaqaviy tashkilotlarning ko'payishiga jiddiy turtki bo'ldi. Yevropada integratsiyaviy jarayonlarning muvaffaqiyatlari, AQSHning boshqa mintaqalardagi jarayonlarga aralashuvining pasayishi, qutblardan biri bo'lgan sobiq SSSRning parchalanishi, yangi mintaqaviy va global kuchlarning yuzaga kelishini (masalan, Xitoy, Hindiston, Braziliya, JAR, Turkiya) mintaqaviy hamkorlikning kuchaytirishga bo'lgan intilishlarni belgilab bergen omillar sifatida keltirish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, yaqin davrga qadar ayrim g'arblik mutaxassislar Yevropadan tashqaridagi mintaqaviy hamkorlik loyihalari va tashkilotlarni YI bilan qiyoslagan holda, ularni "muvaqqiyatsiz" deb baholashgan. Yangi turdag'i mintaqaviy tashkilotlar har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari ta'sirda rivojlanganligini inobatga olishmagan. Bu esa, o'z navbatida, G'arbdan tashqarida yuzaga kelgan mintaqaviy hamkorlik tuzilmalarini eski nazariyalar doirasida ishlab chiqilgan uslublar bilan o'rghanish maqbul emasligi va shu sabab yangi nazariyalarning vujudga kelishini taqozo etdi²⁶.

Nazariy jihatdan bu muammo ilk marotaba 1980-yillarda shvetsiyalik olimlar B.Xettne va F.Syoderbaum tomonidan batafsil o'r ganilgan bo'lib, aynan ular "yangi mintaqaviylik" konsepsiyasining asoschilari hisoblanishadi. Keyinchalik, ushbu nazariyani L.Foset, M.Telo, M.Shuls, I.Ojendal kabi olimlar boyitishgan. Bugungi kun ilmiy adabiyotlarda yangi mintaqaviylikning turli nazariyalarini uchratish mumkin: "qiyosiy mintaqaviylik", "mintaqalar dunyosi", "Osiyo mintaqaviyligi"²⁷, "qattiq mintaqaviylik", "yumshoq mintaqaviylik"²⁸ va boshqalar.

Yangi mintaqaviylikning yuzaga kelishini bipolyar tizimning tanazzulidan keyin yangi mustaqil davlatlar siyosiy noaniqlik va barqarorlik girdobiga kirib qolishdi va bu ularni mintaqalar doirasida hamkorlikni kuchaytirishga undagan. Shuningdek, globallashuv natijasida

²⁵Kanika Gupta. Globalization and the Theory of New Regionalism: A Post Cold-War Theoretical Perspective on Regional Organizations. // The International Journal of Humanities & Social Studies. Vol 2 Issue 7 July, 2014 p.236–242

²⁶Mixaylenko, Ye. B. "Staruy" i "novyy" regionalizm: teoreticheskiy diskurs : kurs leksiya : [ucheb. posobiye] / Ye. B. Mixaylenko; [nauch. red. M. M. Lebedeva]; M-vo obrazovaniya i nauki Ros. Federatsii, Ural. Federal. un-t. — Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2014. - 116 s.

²⁷ M.L.Lagutina, Ye.B.Mixaylov. Regionalizm v globalnuyu epoxu: obzor zarubjnykh i rossiyskikh podxodov.// Vestnik RUDN. Seriya: Mejdunarodnye otnosheniya. 2020, T.20, №2, Ss.261–278

²⁸ Louise Fawcett. Exploring Regional Domains: A Comparative History of Regionalism. June 2004. // International Affairs 80(3):p.433.

yuzaga kelgan iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning turli oqibatlarini mutanosiblashtirish ko‘plab mamlakatlarning mintaqaviy hamkorlik sxemalariga murojaat qilishini taqozo etgan edi²⁹. Yangi mintaqaviylik nazariyachilar uning “eskisi”dan quyidagilar bilan farq qilishini ko‘rsatishadi: 1) yangi mintaqaviylik qariyb ko‘plab mintaqalarga doir, ya’ni umumjahon fenomen, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda; 2) u yevropatsentrik emas; 3) eski mintaqaviylikdagidek tor, faqat himoyaviy yoki iqtisodiy maqsadlarni ko‘zda tutmaydi, balki keng maqsadlarga yo‘naltirilgan (siyosiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladigan hamkorlik); 4) integratsiyalashuv jarayoni, ham “quyidan” (fuqarolik jamiyatni va xususiy sektor tomonidan), ham “yuqoridan” (ya’ni, hukumatlar tomonidan) rag‘batlantirilishi mumkin³⁰.

Yangi mintaqaviylik konsepsiyalari xilma-xil va hatto bir-biriga zid jihatlarga ham ega. Ulardagi eng asosiy munozarali, zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasi uchun muhim bo‘lgan ikkita masalani ko‘rsatish mumkin. *Birinchisi*, globallashuv va mintaqalashuv jarayonlarining o‘zaro bog‘liqlik yoki zidlik muammosi. Dastlabki nazariyotchilar, “globallashuv va mintaqaviylashuv o‘zaro yaqin jarayonlar hamda turli shartlar ta’sirida mintaqaviylashuvning bir-biridan farq qiluvchi modellarining shakllanishini belgilab beradi, deb hisoblashgan³¹. Lekin, bu boradagi oxirgi tadqiqotlarda globallashuv va mintaqaviylashuv bir-biridan mustaqil jarayonlar, aksincha, aynan mintaqaviylashuv keyingi davrda globallashuv xususiyatlariga ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda, deyiladi³². Bunday munozara o‘z-o‘zidan ikkinchi – mintaqaviy tashkilotlar va mintaqaviy hamkorlikning boshqa platformalarining dunyo tartibotiga ta’siri bilan bog‘liq masalani keltirib chiqardi. Ayrim olimlar mintaqaviylikni globallashuvga zid bo‘lgan va shu sabab global boshqaruv³³ uchun xalaqit beruvchi salbiy fenomen, deb biladi. Ularning yondashuvi asosida “yangi turdagи mintaqaviy tashkilotlar G‘arb tomonidan o‘rnatalgan dunyo tartibotini shubha ostiga qo‘yishadi va shu sabab zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga putur yetkazishi mumkin”³⁴, degan g‘oya yotadi (shu kabi qarashlar, ayniqsa, 1990-yillarda kuchli bo‘lgan). Bunga misol tariqasida Saudiya Arabsitoni yetakchiligidagi Fors ko‘rfazi Kengashi, Venesuela va Kuba tomonidan tuzilgan ALBA (“Bizning Amerikamiz xalqi uchun bolivarian alyans”), SADC (Janubiy Afrika taraqqiyot Hamjamiyati) va SHHT kabi

²⁹ Ilmiy ada biyotlarda mintaqaviy kelishuvlarsoni “Sovuq urush” yakuniva 2000-yil orasida besh marotaba ortganligi qayd etiladi. Caporaso 2002;

³⁰ Hosli, M. O., & Selleslags, J. (Eds.). (2020). The Changing Global Order. // United Nations University Series on Regionalism. 2020. p.150

³¹Theories of New Regionalism. A Palgrave Reader. Edited by Fredrik Söderbaum and Tim Shaw. 2003.

³²Kanika Gupta. Globalization and the Theory of New Regionalism: A Post Cold-War Theoretical Perspective on Regional Organizations. // The International Journal Of Humanities & Social Studies. Vol 2 Issue 7 July, 2014 p.236–242

³³ “Global boshqaruv” tushunchasi, globallashuv natija sida xalqaro munosabatlarda nafaqat suveren davlatlar, balki nohukumat tashkilotlar, transmiliy kompaniyalar va boshqa yangi turda gi aktorlarning ishtirotini nazarda tutadi.

³⁴Bhagwati, J. Regionalism versus Multilateralism. // The World Economy. 1992. 15(5)/ pp.

mintaqaviy tashkilotlar ko'rsatiladi. Mintaqaviylikning bu shaklini "avtoritar mintaqaviylik" deb ta'riflashlar ham uchraydi³⁵.

"Yangi mintaqaviylik" konsepsiyasining boshqa nazariyotchilari mintaqaviy tashkilotlar va tashabbuslarning muayyan mintaqalarni barqarorlashtirish va iqtisodiy salohiyatini oshirish orqali xalqaro munosabatlarning barqarorlashuviga hissa qo'shishini ta'kidlashadi. Shundan kelib chiqib, keyingi paytlarda mintaqaviy tashkilotlarni "o'z qadriyatları va normalariga ega, shu asosda boshqa intstitutlar bilan, shu jumladan, global boshqaruv doirasida ham aloqa qiladigan xalqaro munosabatlarning mustaqil subyektlari" deb baholashlar, masalan, konstruktivizm va neomarksizm nazariya maktablarida ko'plab uchraydi³⁶.

Mintaqaviy tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'mini tadqiq qilishda M.Telo tomonidan ishlab chiqilgan nazariya alohida qiziqish uyg'otadi. Olim mintaqaviylikni doimiy o'zgarish holatidagi global boshqaruv va dunyo tartibotining tuzilmaviy qismi deb biladi. Shunday ekan, hozirgi sharoitda mintaqaviy tashkilotlar faqatgina savdo va iqtisodiy faoliyat bilan cheklanib qolmasdan, raqobat va hamkorlik orqali ko'p qutblilikka asoslangan yangi dunyo tartibotini shakllantirishda ishtirok etmoqda. Uning fikricha, kelgusida xalqaro munosabatlar ikkita sценарий bo'yicha rivojlanishi mumkin: ziddiyatli ko'p qutblilik yoki ikki qutblilik (AQSH–Xitoy), boshqacha aytganda – ko'p sonli ishtirokchilardan iborat ko'p tomonlama hamkorlikka asoslangan tizim. Xalqaro munosabatlarning inkluziv bo'lishi uchun dunyo tartiboti ikkinchi sценарий bo'yicha rivojlangani afzal. Unda mintaqaviy tashkilotlar global boshqaruvning yangi tizimini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanadi. Bu yerda nafaqat muayyan mintaqalar darajasidagi hamkorlik, balki turli mintaqaviy platformalar o'rtasidagi (mintaqalararo pog'ona) hamkorlik formatlarining ham ahamiyati muhim³⁷. Ushbu tendensiyani Yevropa Ittifoqi – ASEAN, "ASEAN plus", Osiyo–Tinch okean sherikligi (ATP), "BRIKS+" va boshqa mintaqalararo muloqot formatlarining ortib borayotganligida ko'rish mumkin.

Regionalizm sohasidagi yangi nazariyalar orasida MDH davlatlari, xususan, rossiyalik olimlar o'rtasida uchraydigan "yevroсио/postsovets mintaqaviyligi" konsepsiyasini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Uning doirasida SHHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Kollektiv

³⁵ Maria J. Debre. The dark side of regionalism: how regional organizations help authoritarian regimes to boost survival. // Democratization . Volume 28, 2021 - Issue 2. P. 394-413 |; Alexander Libman, Anastassia V. Obydenkova. Understanding Authoritarian Regionalism. // Journal of Democracy. № 4 (2018). P. 151–65.

³⁶ L.Lagutina, Ye.B.Mixaylov. Regionalizm v globalnuyu epoxu: obzor zarubjnyx i rossiyskix podxodov. // Vestnik RUDN. Seriya: Mejdunarodnye otnosheniya. 2020, T.20, №2, Ss.261-278

³⁷ Alexander Libman, Anastassia V. Obydenkova. Understanding Authoritarian Regionalism. // Journal of Democracy. № 4 (2018). P. 151–65

xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXSHT) kabi tuzilmalarni o‘rganishga harakatlar mavjud³⁸. Aytish mumkinki, ushbu nazariya maktabi hali to‘liq shakllanib ulgurmagan. Dastlab, “Yevroсиyo mintaqaviyligi”, asosan, Rossiyaning sobiq SSSR hududidagi hukmronligini yangi integratsiyaviy loyihalar yordamida qayta tiklashni nazarda tutgan bo‘lsa, oxirgi paytda bu “Katta Yevroсиyo” konsepsiysi shaklida ilgari surilmoqda. Masalan, rossiyalik mutaxassislar N.Vasilyeva va M.Lagutina “yangi mintaqaviylik” sohasidagi boshqa nazariyalarning uslublaridan foydalangan holda “Yangi Yevroсиyo mintaqaviyligi”ni rivojlantirishni taklif qilishadi. Yevrosiyoni “global ahamiyatdagi mintaqa” sifatida talqin etib, bu yerdagi integratsiya jarayonlariga davlatlar bilan birga biznes tuzilmalar va fuqarolik institutlarini ham jalg qilish zaruratini ko‘rsatadi³⁹. Lekin, Rossiyada tobora ommaviyashib borayotgan bu konsepsiya g‘arblik olimlar tomonidan tanqidiy, “avtoritar mintaqaviylik”ning bir turi sifatida baholanib, Rossiyaning geosiyosiy manfaatlarni ifoda etuvchi va uning sobiq SSSR hududidagi gegemonligini qayta tiklashga qaratilgan, deyiladi.⁴⁰

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalqaro munosabatlarda mintaqaviy tashkilotlar ahamiyatining ortib borishi “Sovuq urush”ning tugashi bilan bevosita bog‘liq. Bugun ular yangi dunyo tartibotini tuzishda faol ishtirok etishmoqda. Turli nazariy maktablar o‘rtasidagi mavjud babs-munozaralardan qat’i nazar, keyingi davrda mintaqaviy tashkilotlar zamonaviy xalqaro munosabatlар transformatsiyasining muhim omili sifatida gavdalanoqda. Mazkur tuzilmalarning bunday mohiyati quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: *birinchidan*, mintaqaviy tashkilotlar global iqtisodiyot va siyosat kun tartibini belgilashda va uni hayotga tatbiq etishda bevosita ishtirok etmoqda; *ikkinchidan*, mintaqaviy tashkilotlar, ayniqsa, yangi turdagи mintaqaviy institutlar (masalan, ASEAN, SHHT, BRIKS) yangi dunyo tartibotini shakllantirishda faol ishtirok etib, xalqaro munosabatlarda ko‘p qutblilikka asoslangan tizimning shakllanishiga hissa qo‘shishmoqda; *uchinchidan*, muayyan mintaqa doirasida siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida hamkorlikni kuchaytirish va tahdidlarga qarshi samarali kurashish orqali ular global barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

³⁸O.A. Romanov. Yevraziyskaya regionalizatsiya v kontekste globalnyx transformatsiy miroporyadka: istoricheskoye znachenije i sущност. Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Istoriya. 2017. № 50, S.76-83; N.A.Vasilyeva, M.L.Lagutina. Formirovaniye yevraziyskogo soyuza v kontekste globalnoy regionalizatsii // Yevraziyskaya ekonomicheskaya integratsiya. № 3 (16) 2013. S.19–29.

³⁹N.A.Vasilyeva, M.L.Lagutina. O’sha joyda.

⁴⁰Krapohl, S., Vasileva-Dienes, A. The region that isn’t: China, Russia and the failure of regional integration in Central Asia. // Asia Europe Journal 18, 2020. p. 347–366.